



V.A. SUXOMLINSKIYNING “BOLALARGA JONIM FIDO” ASARINING BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOG-O‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Raximboyeva Salomat Fayzullayevna.

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti

Raximboyevasalomat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ukrainlik pedagog V.A. Suxomlinskiyning bir qancha mamlakatlarga mashhur “Bolalarga jonim fido” asarida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari faoliyati uchun yozuvchining o‘z hayot tajribasidan kelib chiqib keltirilgan qator tavsiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bolani sevish, bolaning dars jarayoniga munosabati, ota-ona bilan pedagog o‘rtasidagi aloqa, darslarni tabiat bilan bog‘lash, kishiga g‘amxo‘rlik qilish, bola salomatligi, bolaning erkinligini ta’minlash.

Har qaysi zamonda ham o‘qituvchi-pedagog zimmasiga og‘ir va ma’suliyatli vazifalar yuklatilgan. Eng mashaqqatli kasb sanaluvchi shifokordan tortib, oddiy ishchiga ham avvalo ustoz bilim bergan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan. Zeroki, o‘sib kelayotgan yosh niholni qay tarzda ko‘kka bo‘y cho‘zishi bog‘bon mehnatiga bog‘liq. V.A.Suxomlinskiyning “Bolalarga jonim fido” asarida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilariga faoliyatini olib borish uchun qator tajribalarda ijobiy natija ko‘rsatgan samarali tavsiyalar berilgan.

Suxomlinskiy asarda o‘z hayotini bayon qilar ekan, o‘zini bola siymosiga qo‘ya oldi, ularni har qanday vaziyatda tushuna bildi va shuning uchun ham o‘qitgan o‘quvchilarini maqsad qilgan darajasigacha yetkaza oldi. Yozuvchi Yanush Korchakning “Men yana kichkina bo‘lganimda” kitobida quyidagi misralarni asarda keltiradi: “Dorskaga qaraganida u ko‘proq maktab o‘quvchisi bo‘ladimi yoki yo‘qmi, uni chidab bo‘lmas kuch (quyoshning kungaboqar boshini aylantiruvchi kuchi) derazadan tashqariga qarashga majbur qilganidan ko‘ra biladi”. Bu erkin, hech qanday ma’suliyatsiz va hech qanday taqiqlarsiz yashab kelayotgan bolani stulga mixlab qo‘yib majburan bilim berish, uning ruhini zo‘rlash, bolaning maktabga ilk qadam qo‘ygan kunlaridagi dars jarayoniga qiziqishini so‘ndirishga va o‘zining doimiy hayot tarziga talpinishiga undash demakdir. Bolani uning bolaligidan chetlash, tasavvurlariga cheklov qo‘yish, o‘zi xohlamagan qolipga solish,



qiziqishlariga bee'tiborlik bilan qarash bu pedagogning o'quvchiga nisbatan haqiqiy zo'ravonligidir.

Suxomlinskiy ta'kidi bo'yicha pedagogning birinchi maqsadi bolalarga "o'rganishni o'rgatish" bo'lishi lozim. Barcha mantiq mana shu jumla zamirida yashirin. O'rgatilishi zarur bilimlarni qay yo'sinda bolalarga yetkazib bera olish pedagog mahoratiga hamda uning shijoatiga bog'liq. Buning uchun avvalo, bolalarni chin dildan seva olmoq va eng asosiysi ularga mehr bera olmoq lozim. Mehr berib qilinmagan har qanday mehnat natijasi mevasiz daraxt misolidir. Maktab ostonasiga ilk tashrif buyuradigan o'quvchi, butunlay boshqa hayot tarziga qadam qo'yadi hamda ushbu tizimga birdaniga moslashishga majbur bo'ladi. Buning yechimi sifatida yozuvchi o'quvchilarni ta'lim maskanida bilim olishni boshlashlari uchun bir yil oldin, ya'ni 6 yoshligidanoq yangi muhitga ko'niktirish harakatlarini boshlashni taklif qiladi. Ushbu jarayon asar yaratilgan zamon muhitiga nisbatan ham o'qituvchi va ham o'quvchi uchun maqbul qaror edi. Bu masalani bugungi kun bilan qiyoslasak, 1-sinfda o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rgatilmoqda va bu bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasasiga borgan va bormagan bolalar bilim darajasi har xil bo'lganligi tufayli pedagogning ularga bir xil vaqtda bir xil narsani o'rgatishi bir bola uchun yangilik bo'lsa, boshqasi uchun zerikarli ma'lumot bo'lib qoladi, xolos. Bilim darajasi turli bo'lgan bolalar bilan alohida shug'ullanish esa bir qancha vaqtni oladi. Bu vaziyatda ta'lim jarayoni uchun ota-ona muhim rol o'ynaydi. Yozuvchi ham farzandni kamolotga yetkazishda ota-ona bilan birgalikda olib borilgan sa'y-harakatlar, albatta o'z natijasini berishini ta'kidlaydi. Pedagog qanchalik tirishqoqlik bilan mehnat qilmasin, ota-onaning e'tiborsizligi ta'lim-tarbiya jarayonining samarasizligiga olib keladi.

Bolaning miya hujayralari shu qadar nozikki, o'qituvchi xato qilishga aslo haqqi yo'q. Uning qabul qilib olgan har bir ma'lumoti xotirada unutilmas saqlanib qoladi. Yozuvchi maslahatlaridan birida shunday deydi: "Fikrlashning birinchi sinfida bola doska oldida emas, balki tabiatda bo'lishi kerak". Bola ko'zi bilan ko'rgan narsasida o'ziga ma'lum bo'lmagan qirralarni ham ko'radi va uni chuqur o'rganibgina qolmay mana shu narsani yana boshqa yangi belgi-xususiyatlari bilan xotirasida mustahkamlaydi. Ochilmagan qirralar bola qiziqishini atrofdagi boshqa narsalarga nisbatan ham orttirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabning eng muhim vazifalaridan biri bilimlardan foydalanishni o'rgatish sanaladi. Eng maqbul yechim, albatta, tabiat va unda biz izlagan hamma narsa topiladi. Shu qatorda bolaning fikrlashiga imkon berish o'qituvchi uchun zarur



kasbiy qobiliyat bo‘lmog‘i lozim. Qachonki, bola o‘zi mustaqil fikrlab, nutqini to‘liq bayon qila olsa, o‘zining “men”iga ega bo‘ladi hamda insonlar orasida o‘z o‘rnini topishi oson bo‘ladi. Afsuski, bugungi kunda ko‘pchilik pedagoglarga bolalarga nisbatan “Tinglamasang yomon baho qo‘yaman” tahdidi odat bo‘lib qolgan. Bolani yomon baho bilan qo‘rqitish, majburan darsga jalb qilish emas, balki uning e‘tiborini ixtiyorsiz dars jarayoniga qarata olish kerak. Yozuvchi o‘zining 4 yillik ish faoliyati jarayonida hech qachon qoniqarsiz baho qo‘ymaganligini aytib o‘tadi. Buni o‘z tajribasida sinab ko‘rgan pedagog juda yaxshi biladi. Qachonki, bolaga mehnatini qadrlab yaxshi baho qo‘ysangiz, uni a‘lo qilish uchun o‘quvchida beixtiyor harakat paydo bo‘ladi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham ortib boradi. Biroq osonlik bilan erishish hissini bola miyasiga o‘rnatib qo‘yish xavfidan ogoh bo‘lmoq lozim.

Yozuvchi bolalarning o‘z tillarida gaplashishini, bolalarning tasavvuriga joy berishni va ularning dunyoni ertak tilida tasavvur qilishini buzmaslikni ta‘kidlaydi. Bolani mustaqil ertak tuzishga undash, o‘zlari chizgan rasmlar haqida gapirib berishlari uchun sharoit yaratib berish bu bolaning nutqini o‘stiribgina qolmay, jamoada o‘z fikrini keltira olish ko‘nikmlarini ham oshiradi. Albatta, bolalar xayolotdagi sarguzashtlarni yoqtiradi, biroq haqiqiy hayotga ham ertak misoli qarashga odatlanib qolmasliklarini nazorat qilmoqlik zarur.

Nina va Sasha ularning onasi xastaligidan maktabga g‘amgin kelishi va ba‘zan darslarga kela olmasliklaridan o‘rtoqlari birgalashib, ularning oilasiga bir qancha uy yumushlariga qarashishga borishadi. Bu bilan ko‘rinib turibdiki, bolalarni bir-birlariga mehribon va g‘amxo‘r qilib tarbiyalash ham mashaqqatli vazifadir. Yozuvchi mana shu vaziyat yuzasidan “Agar bola qayg‘u, iztirob, nafrat nima ekanligini o‘rganmasa, u egoist bo‘lib ulg‘ayadi” – deya ta‘kidlagan. Demakki, bola qayg‘uli, iztirobli vaziyatni ko‘zi bilan ko‘rib, o‘zi shu og‘riqni his qila olsagina kishiga g‘amxo‘rlik qilishi mumkin. Pedagogdan talab mana shu vaziyatni bola hayotiga kirita olish va holat yuzasidan asl ma‘noni bola qalbiga yetkaza olishdir.

Bola barkamol bo‘lib kamol topishida uning ovqatlanishi, qay muhitda yotib turishi, odatda ota-onalar nazorati ostida bo‘lmog‘i lozim. Biroq unutmazlik kerakki, o‘qituvchi ham ikkinchi ota-ona demakdir. Sababi, bolaning salomatligidagi muammolar o‘quv-tarbiya jarayoniga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yozuvchi bunga jiddiy qarash kerakligini takror-takror ta‘kidlab o‘tadi. Bu jihatdan, bugungi kun bilan solishtiradigan bo‘lsak, ba‘zilar pedagog qarorini ma‘qullamasdan, “o‘qituvchi oila tizimiga arashlashmasligi kerak”, deya norozilik bildiruvchi ota-onalar ham kam emas. Afsuski, bu vaziyatda holatni o‘zgartirish yuzasidan o‘qituvchi uchun hech qanday imkon qolmaydi.



Xulosa qilganda, asarda keltirilgan yozuvchining ish faoliyatidagi tajribalaridan muvafaqqiyatli o'tgan bu metodlar dars jarayonlarida qo'llash uchun samaralidir. Asar faqat bitta fan yuzasidan emas, balki boshlang'ich sinflarda o'tilishi kerak bo'lgan barcha fanlar, matematika, o'qish, ona tili, tabiat, tasviriy san'at va mehnat fanlari, qamrovi doirasida yaratilganligi pedagog faoliyati uchun tayyor yordamchi qo'llanma bo'la oladi. Asar yaratilishi bilan bugungi kun o'rtasidagi zamonlar tafovutini inobatga oladigan bo'lsak, muhit, shart-sharoit, bolalar fikrlashi, dunyoqarashlari, atrof-olamga nisbatan munosabati o'zgargan, albatta. Biroq asardan to'g'ri xulosa chiqarib, o'z faoliyatida to'g'ri qo'llay olish o'qituvchining qobiliyatiga bog'liq. Suxomlinskiy kabi bolalarga umrini bag'ishlagan, bola kabi firklarab uning ichki kechinmalarini his qilmagan, kasb yuzasidan vazifasini sidqi-dildan sevmagan insondan haqiqiy pedagog chiqmaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Yanush Korchak. Men yana kichkina bo'lsam.- Azbuka-atticus, 2023 machaon.160-b.
2. V.A.Suxomlinskiy. Bolalarga jonim fido. - Konseptual, 2019. 320-bet.
3. www.kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi